





SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI



**SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS,
PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI
(2022/2023- o'quv yili boshiga)**





Sirdaryo viloyatida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi


Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni hilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Sirdaryo viloyatida o'рта maxsus, professional ta'limi tizimi

O'рта maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'рта ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional ta'lim**



**O'рта professional
ta'lim**



**O'рта maxsus
professional ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'рта professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'рта, o'рта maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'рта maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'рта, o'рта maxsus, boshlang'ich professional va o'рта professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, birlik)



Guliston sh.

1

Sirdaryo t.

1


2022/2023- o'quv yili

2022/2023- o'quv yilida 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 2 tadan o'zgarmagan.

2022/2023- o'quv yili boshiga ko'rsatkichi Guliston shahar va Sirdaryo tumanida (1 tadan) qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarda mavjud emasligi kuzatilgan,

 Akademik litseylar soni

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 1,6 ming kishiga, ya'ni 65,2 % ga kamaygan.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Guliston shahrida (0,4 ming kishi), eng kam qismi Sirdaryo tumanida (0,3 ming kishi) qayd etilgan.


Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 63,5 % ni (0,4 ming kishi), qizlar ulushi 36,5 % ni (0,3 ming kishi) tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 91 kishiga, ya'ni 42,0 % ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Guliston shahrida (37 kishi), eng kam esa Sirdaryo tumanida (29 kishi) qayd etilgan.


Akademik litseylarning bitiruvchilari (ming kishi)



2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2019- yilga nisbatan 0,6 ming kishiga, ya'ni 5,0 % ga ko'paygan



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Sirdaryo viloyatida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)




Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar ko'payganligi, kasb-hunar maktablari hamda kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.

Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 1 taga ko'paygan kollejlar, texnikumlar soni esa o'zgarmagan.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2020/2021- o'quv yilidan 2022/2023- o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 1,4 barobarga, texnikumlarda 2,2 barobarga, kollejlarda esa 44,5 % ga oshgan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (69,1 %) ulushi qizlar (30,9 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar, o'g'il


bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 84,4 % ni, o'g'il bolalar ulushi 15,6 % ni, texnikumlarda esa qizlar 63,9 % ni, o'g'il bolalar 36,1 % ni tashkil qilgan.



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2020/2022- o'quv yiliga nisbatan 24,8 % ga kamaygan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (2022- yil uchun, ming kishi)

Viloyat bo'yicha



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida jami bitiruvchilar soni 5,6 ming nafarni tashkil etgan b'olib, shundan kasb-hunar maktablarini 2,2 ming nafar, kollejlarlarni 1,5 ming nafar va texnikumlarni 1,9 ming nafar o'quvchilar bitirdi.

■ Kasb-hunar maktablari
 ■ Kollejlar
 ■ Texnikumlar




SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI





Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda* (2022/2023- o'quv yili boshiga)




2022/2023- o'quv yili boshida Sirdaryo viloyatida **12** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Boyovut, Sayxunobot, Xovos tumanlarida (**2** ta) dan, eng kam – qolgan tumanlarda (**1** ta)dan qayd etilgan.

**shu jumladan madaniyat va san'at maktablarni qo'shgan holda*



SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Tuman, shaharlar bo'yicha
2022/2023- o'quv yili boshiga



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **5,0** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xovos tumanida – **0,9** ming nafar, eng kami Guliston shahrida – **0,3** ming nafar.




Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **30,9** foizini qizlar, **69,1** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.






**Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Sirdaryo viloyatida




2022- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **370** nafarga yoki **1,1** barobarga ko'payib, **400** nafarni tashkil etdi.

Tuman va shaharlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Guliston shaharda – **95** nafar, eng kami – Guliston tumanida – **20** kishi qayd etilgan.




SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Kollejlar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Tuman, shaharlar bo'yicha



Sirdaryo viloyatida




2022/2023- o'quv yili boshida Sirdaryo viloyatida 6 ta kollej mavjud bo'lib, tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'pi Guliston shaharda (2 ta), eng kami Xovos tumanida (1 ta) qayd etilgan.

■ 2021/2022 ■ 2022/2023




SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI





Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Tuman, shaharlar bo'yicha




■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Sirdaryo viloyatida




2022/2023- o'quv yili boshida Sirdaryo viloyatida 6 ta kollejda 3,5 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Yangiyer shaharda (1,5 ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Shirin shaharda (0,5 ming kishi) qayd etilgan.






Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Tuman, shaharlar bo'yicha




Sirdaryo viloyatida




2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda **150** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2021- yilda – **144** nafar) 1,0 foizga oshgan.






SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)




 2021/2022
 2022/2023



Sirdaryo viloyatida 2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlar soni 7 tani tashkil etdi, 2021/2022- o'quv yili boshiga o'zgarmagan.




SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Tuman, shaharlar bo'yicha



Sirdaryo tumani




2022/2023- o'quv yili boshida Sirdaryo viloyatida texnikumlarda **2,2** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumanida (**1,3 ming**), eng past ko'rsatkich Mirzaobod tumanida(**0,1** ming) qayd etilgan.

■ 2021/2022 ■ 2022/2023




SIRDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI





Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Tuman, shaharlar bo'yicha




Sirdaryo tumani



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **95** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (178 nafar) nisbatan **1,8** barobar kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Guliston shaharda – **43** nafar, eng kami – Mirzaobod tumanida – **9** nafar qayd etildi.





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlardan iborat bo'ladi.


Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlar – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Sirdaryo viloyati
Statistika boshqarmasi**



**Manzil: 120100, Guliston sh.
Birlashgan ko'chasi, 62**



Tel.: +99867 236-70-00



e-mail: info@sirstat.uz



www.sirstat.uz



facebook.com/sirdayo.viloyati

